



BOSHLANG'ICH SINFLARDA 4K MODELINI ZAMONAVIY USULLARDA TAVSIFLASH

Rasulova Tursunoy Ochilovna.

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 23- umumta'lim maktabi „Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: hozirgi kunda dars o'tishning noan'anaviy usullaridan foydalanish ta'lim sifatini oshishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda 4K modelini zamonaviy usullarda tavsiflash ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: 4K modeli, Kollaboratsiya, Kommunikativlik, kritik fikrlash, kreativ fikrlash.

1-4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etadi.



Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: Darsliklar o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadilar.

Kreativ fikrlash: Darsliklar ijodiy fikrlashni va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Kritik fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarningning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga analitik nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradilar.

Boshlang'ich sinflar uchun ushbu yangi darsliklar o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, nafaqat bilim, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

4K modelini amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi(Komanda bilan o'qitish)

Hamkorlikda o'qitish o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning birgalikda bajarishi va Hamkorlikda o'qishidan iborat. Ushbu texnologiya olingan bilimlar asosida o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni ko'zda tutadi.

O'qituvchi hamkorlikda o'qitish asosida darsni tashkil etish uchun mavzularni aniqlab, o'quvchilar bajarishi uchun topshiriqlar, dars rejasini ishlab chiqadi, o'tilgan va yangi dars mavzusi bo'yicha o'quvchilar bilimini aniqlash uchun test topshiriqlarini tuzadi.

Hamkorlikda o'qitishning komandada o'qitish, kichik guruhlarda o'qitish, «zigzag», ya'ni «arra», «birgalikda o'qiyamiz» metodlari mavjud.

Komanda bilan o'qitish metodida o'quvchilar teng sonli 2 komandaga ajratiladi. Komandalarga bir xildagi topshiriqlar beriladi. Topshiriqlarni har bir komanda a'zolari birgalikda bajarishadi. Bu texnologiyada o'quvchi bilimining kundalik natijasi avval qo'lga kiritgan natijasi bilan solishtirish orqali aniqlanadi. Ana shunday qilinganida o'quvchi o'zi erishgan natijadan butun komanda manfaatdor bo'lishini aniqlab, ko'proq bilim olishiga va izlanishga intiladi.



O'qitishning mantiqiy metodlari guruhi

Mazkur metodlar o'quv materiali mazmunining yo'nalishini belgilab, o'quvchilarning bosh g'oyani ajratish, o'rganilayotgan ob'ektni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish ko'nikmalari, aqliy faoliyat usullarini egallash, abstrakt tafakkurni rivojlantirish, sabab-oqibat bog'lanishlarni anglash imkonini yaratadi.

O'qitishning mantiqiy metodlari guruhiga induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlari kiradi.



Induktiv metodda – o'quvchilarning e'tibori avval xususiy faktlarni o'rganishga jalb qilinadi, so'ngra xususiydan umumiy xulosalar chiqarishga yo'naltiriladi. Masalan, baliqlarning xususiy tuzilish belgilari (tana shakli, terisi, suzg'ichlarining bo'lishi, yon chiziqlari, nafas olishi, ko'payishi) va boshqa xususiyatlarini o'rganish orqali ularning suv muhitida yashashga moslashganligi to'g'risida induktiv umumiy tushuncha hosil qilinadi.

Deduktiv metodda o'quvchilar avval umumiy qonunlarni o'rganadi, so'ngra umumiydan xususiy xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Deduktiv yo'l bilan sudralib yuruvchilarning quruqlik muhitiga, qushlarning havoda uchishga moslanishi mavzusida ham qo'llash mumkin.

O'quvchilar tahlil metodi yordamida axborotni anglab idrok etadi, o'rganilgan ob'ektlarning o'xshashlik va farqli tomonlarni aniqlaydi, o'rganilgan ob'ektlarni tarkibiy qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi boshlanishlar, sabab oqibatlarini aniqlaydi.



Bosh g'oyani ajratish metodi muhim ahamiyat kasb etib, o'quv materialidagi asosiy g'oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g'oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so'zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi.

O'quvchilar qiyoslash metodi vositasida, o'quv topshiriqlarida berilgan qiyosiy ob'ektlarni aniqlash, ob'ektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirishga o'rganadi.



Umumlashtirish metodi muammolarni hal etish jarayonida o'quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi. Masalan, suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, sutemizuvchilar tuzilishiga tegishli materiallardan ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqni ko'rsatuvchi asosiy dalillar besh barmoqli oyoqlarning rivojlanganligi, terining tuzilishi, ko'payish, nafas olish, umurtqa pog'onasi, qon aylanish sistemasining rivojlanganligi ni, ko'payish usulini ko'rsatish mumkin. Ana shu ma'lumotlarga asoslanib, besh barmoqli oyoqlarning paydo bo'lishi, o'pka bilan nafas olish hayvonlarning quruqlikda yashashga moslanishi bilan bog'liqligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

Mazkur metodlar mos holda:

a) induktiv metod - xususiy faktlarni muammoli bayon qilish, o'quvchilar faoliyatini xususiydan umumiy xulosalar chiqarishga yo'naltirish, muammoli topshiriqlarni berish uslublarini;

b) deduktiv metod umumiy qonunlarni bayon qilish, o'quvchilarning faoliyatini umumiydan xususiy xulosa chiqarishga yo'naltirish uslublarini;

v) tahlil metodi axborotni anglab idrok etish, o'rganilgan ob'ektlarning o'xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, o'rganilgan ob'ektlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi boshlanishlarni aniqlash uslublarini;

g) bosh g'oyani ajratish metodi o'quv materialidagi asosiy g'oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g'oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so'zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarish uslublarini;

d) qiyoslash metodi qiyosiy ob'ektlarni aniqlash, ob'ektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirish uslublarini;

g) umumlashtirish metodi o'quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarish uslublarini o'zida mujassamlashtiradi.

Xulosa

Ilm maktab ostonasidan boshlanadi deyilishi bejiz emas. Chunki inson butun umri davomida oladigan bilim, ko'nikma, malakani boshlang'ich sinflarda maktab partasida egallaydi.

Boshlang'ich maktab – inson hayotidagi butunlay yangi sahifa ekanligi uchun ham o'ta muhimdir. Bu yoshda bola uchun yangi olam bo'lmish maktab davri, bilim olish bosqichi boshlanadi. Aynan shu pallada o'quvchining maktabga nisbatan mehrini qozonish, ta'limga qiziqтира olish uning kelgusidagi muvaffaqiyatlari uchun asos bo'ladi. Bu esa oson ish emas.

Maktabga endigina qadam qo'ygan bolalarga yangi darsliklar tayyorlashda "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy

yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko‘proq e‘tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz. Yangi tajriba bilan esa bolalarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. "21st Century Skills: Learning for Life in Our Times" by Bernie Trilling and Charles Fadel was published in 2009.
2. "Preparing Students for a Global Society: The 4K Competencies, a Teacher's Guide" published by 2022.
3. "Designing Education: Shaping Learning Systems Around the World." edited by Dennis Shirley and Valerie L. Ubbes, 2022.
4. M.Pardayeva “Talim oluvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishning produktiv yechimlari”, “Xalq ta’limi” jurnali 6-son, 2023-y.
5. M. Norqo‘ziyeva “Maktab darsliklari zamon talabiga moslashtirilmoqda”, “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 9-son, 2023-y.
6. https://designingoutcomes.com/assets/Padagogy_Wheel_Translations/Padagogy_Whl_V4_RUS_HD.pdf.